ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMI.



Sh.R.Bobobekov
Jizzax Sambhram unversiteti o‘qituvchisi
e-mail: sh.r.bobobekov16@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali, kompetentli pedagogni tarbiyalash, doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va butun pedagogik faoliyati davomida uzluksiz bilim olish, mos o‘quv materiali va uni taqdim etish uchun tegishli axborot texnologiyalari vositasini tanlash, resurslarni yaratish, o‘quv jarayonini takomillashtirish va ta’lim masalalarini hal qilish uchun o‘quv jarayonida bulutli texnologiyalarini qo‘llash haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bulutli hisoblash, bulitli texnologiya, tarmoq xizmatlari, axborot texnologiyalari, akademik mobillik, kompetentlik.

Annotation

In this article, training of a highly qualified and competent pedagogue in the field of information technologies, continuous self-improvement and continuous learning throughout the entire pedagogical activity, selection of appropriate educational material and appropriate information technology tools for its presentation, creation of resources, training the use of cloud technologies in the educational process to improve the process and solve educational issues is discussed.

Keywords: cloud computing, cloud technology, network services, information technology, academic mobility, competence.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati, birinchi navbatda jamiyatning, ta’lim sohasining rivojlanishiga bog‘liq. Hozirgi kunda ta’lim mazmuni va sifat masalalari jamiyatda

ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu borada, ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda. Ta’limda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda[1].

Ta’lim sohasida talabalarning akademik mobilligi, ongli va ochiq hamkorligi uchun sharoitlarni ta’minlashi shart. Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali kompetentli pedagogni tarbiyalash, uni doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va pedagogik faoliyati davomida uzluksiz bilim olishini tashkillashtirish, mos o‘quv materialini yaratish va uni taqdim etish uchun tegishli axborot texnologiyalari vositasini tanlash hamda ta’lim masalalarini hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarini qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tarmoq tamoyiliga muvofiq tashkil etilgan sharoitda innovasiyalarni joriy etish, ilmiy - ta’lim faoliyatini rivojlantirish va modernizasiya qilish, ta’limda virtual mobillikni rivojlantirishning dolzarb muammolarini yechishninng samarali mexanizmlaridan biriga aylanadi [2].

Bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlari talabalar bilimini nazorat qilishda yordamchi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda [3]. Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, o‘quv faoliyatini tekshirishning yagona didaktik va uslubiy tizimidir. Nazorat o‘quvchilarning haqiqiy bilim darajasini va ularning o‘quv materialini o‘zlashtirish dinamikasini baholash va bilimlardagi kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi, buning natijasida o‘qitish xususiyatlari haqida tegishli xulosalar chiqarish va tuzatishlar kiritish mumkin.

Talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish va monitoring qilish samaradorligini oshirishning mumkin bo‘lgan yechimlarini tahlil qilgan holda, uni zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llashni tashkil etishning rasmiy vositalariga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘quv jarayonini nazorat qilishning amaliy shakllarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, uni ta’lim muhitida samarali amalga oshirish uchun, talablarga muvofiq, bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlari mos keladi, ularning yordami bilan nafaqat talabalarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish mumkin, balki nazoratni avtomatlashtirish orqali o‘qituvchilarning bandligini osonlashtirgan holda ularning ishini sezilarli darajada optimallashtirish mumkin.

Hozirgi kunda Microsoft Office Online, Zoho Office Suite va boshqa ko‘plab kompaniyalarning bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlari yordamida amlga oshirish mumkin.

Bulutli tarmoq xizmatlarning funksional imkoniyatlarini tahlil qilgan holda, bulutli xizmatlar o‘quv fanlari bo‘yicha samarali o‘quv ishlarini tashkil etish uchun yetarli bo‘lgan zarur funksiyalar to‘plamiga ega. Bundan tashqari, bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq vositalari joriy o‘quv faoliyatini nazorat qilish uchun yangi imkoniyatlar qo‘shadi, shuningdek, talabalarda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarining muxim funksiyalari haqida g‘oyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlar mobilligi va umumiy foydalanishni tashkil etish imkoniyati nafaqat uy vazifalarini va mustaqil ishlarni bajarishda, balki loyiha va tadqiqot faoliyatini tashkil qilishda ham talabalar faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlari nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar uchun ham qo‘shimcha vaqt va kuch sarflamasdan bunday nazoratni tez va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bundan tashqari, bulutli texnologiyalarni qo‘llagan holda, turli sabablarga ko‘ra ma’lum bir vaqt ichida ta’lim muassasasiga borish imkoniga ega bo‘lmagan talabalar bilan ishlash mumkin bo‘ladi. Bunday vaziyatda pedagog xodim ommaviy bulut vositalaridan foydalangan holda bunday talabalarning o‘quv faoliyatini masofadan tashkil etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega.

Bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlarini qo‘llash natijasida talabalarning bilish qiziqishlari rag‘batlantiriladi, o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortadi, mustaqil ish samaradorligi

oshadi, bularning barchasi o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish, jamoaviy ish shakllarini o‘rganishga individual yondashuv bilan samaraliroq birlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bobobekov Sh.R. Tarmoq xizmatlaridan o‘quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Tafakkur ziyosi ilmiy-uslubiy jurnal, 1/2022, 144-146 betlar

2. Захаренко Е.Н. Новый словарь иностранных словарь иностранных слов: 25000 слов и словосочетаний –М.: «Азбуковник», изд. Испр и доп., 2003. – 1040 с.

3. Шевченко В.Г. Организация контроля над учебной деятельностью учащихся средствами облачных технологий- 2014. - №3. – С. 77-80.

4. Bobobekov, S. R. (2022). Advantages of using cloud services to monitor student learning during the teaching process. Open Access Repository, 8(7), 5-8.

5. Bobobekov, S., & Raxmonkulov, F. (2021). O ‘QUVCHILARNI MA’LUMOTLARNI DESHIFRLASH ALGORITMINI QO ‘LLASHGA O ‘RGATISHNI SODDALASHGAN USULI. Academic research in educational sciences, 2(5), 639-649.

6. Rakhmonkulov, F. P. (2022). THE IMPORTANCE OF SOFTWARE IN WEBSITE DESIGN. In СОВРЕМЕННАЯ НАУКА, ОБЩЕСТВО И ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 129-131).

7. Rakhmonkulov, F. P. (2022). Development of web design competence of future IT teachers. In SUSTAINABLE DEVELOPMENT FORUM-2022 (pp. 111-114).

8. Sarvar o’g’li, M. S. (2024). DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINING VA UNING MOXIYATI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 8(4), 192-196.